



**QISHLOQ XO‘JALIGI DON EKINLARIDA DUKKAKLI
EKINLARNING TURLARI VA UNING AHAMIYATI**

A'zamqulov Nurbek

azamqulovnurbek@gmail.com

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Yangiyer filiali o'qituvchisi

Аъзамкулов Нурбек

azamqulovnurbek@gmail.com

Преподаватель Янгийерского филиала

Ташкентского химико- технологического института

A'zamkulov Nurbek

azamqulovnurbek@gmail.com

Teacher of the Yangiyer branch of the

Tashkent Chemical Technology Institute

Annotatsiya: Ushbu maqolada dukkakli don ekinlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati bu ekinning oqsil muammosi va tuproq unimdorligini oshirishdagi o'rni xamda xozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida don va dukkakli don maxsulotlari yetishtirishning iqtisodiy samaradorlikni oshirish, oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: don va dukkakli ekinlar, iste'mol ratsionini, yumshoq bug'doy, duragay, xosildorlik, gumos, o'g'it takroriy ekin.


Kirish. Xozirgi vaqtda dunyoda iqlim o'zgarishi natijasida oziq – ovqat havfsizligi va tuproq unimdorligi pasayib ketishi global muammolarga olib kelmoqda. Keying 30 – 40 yil ichida yer shari aholisi soni keskin ortib borishi kuzatilmoqda. Bu kelajakda oziq – ovqatga va oqsil mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishni va shu bilan birga tuproq unimdorligini oshirishda dukkakli don ekinlarining o'rni ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Prezidentimizning «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020—2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 5853-sonli Farmonida “Oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat

mahsulotlari etishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish” Strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo’nalishlari etib belgilangan. Buning uchun birinchi navbatda xudud iqlim sharoitiga mos, dukkakli sifati nobopliligi yuqori mosh, loviya, fasol, kabi navlarini tanlash va ularni etishtirish agrotexnologiyalarini takomillashtirish talab etiladi [1]

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda dukkakli ekinlar va boshqali don ekinlaridan 1991 yilda 1,5 mln. tonnaga yaqinroq g’alla hosili etishtirilgan bo’lsa, bu ko’rsatkich joriy yilda 10 mln. tonnadan ortiqroqni tashkil etdi. Gektaridan olinadigan xosildorlik ham yil sayin ortib bormoqda. 2020 yilda Respublikamizda 1 mln 77 ming gektradan ziyod maydonda boshqali don ekinlari ekilgan bo’lib, 6 mln 400 ming tonnadan ortiq xosil olinib, Respublikada gektaridan olingan o’rtacha xosildorlik 57,5tsentinerga teng bo’ldi. Dastlabki ma’lumotlarga ko’ra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida respublika bo’yicha jami 6 972,1 ming tonna don va dukkakli don ekinlari yetishtirilgan. Ushbu ko’rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga oshgan. Joriy davrda yetishtirilgan don va dukkakli don hajmini boshqa toifadagi xo’jaliklar bilan taqqoslaganda, yuqori ko’rsatkichlar 5 532,5 ming tonna yoki umumiy ishlab chiqarish hajmining 79,3% i fermer xo’jaliklarida qayd etilgan. Dukkakli don ekinlari viloyatlar kesimida quydagicha ekib yetishtirilgan



1 – rasm. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha dukkakli don ekinlarining asosiy ekin sifatida ekilish maydoni (O‘zb. Res. Q/x vazirligi ma’lumoti 2023)

Olib borilgan tajribalar dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqotchi tomonidan “Markaziy” dala tajriba maydonida olib borildi va 4 ta variant, 4 ta qaytariqda joylashtirildi. Har bir variant maydoni 25 m². Tajriba dalasining tuproqlari o’tloqi tuproq bo’lib, sizot suvi sathi 1,5-2 m ni tashkil etadi.

(1-rasm) O’zbekiston Respublikasi bo’yicha dukkakli don ekinlarining asosiy ekin sifatida ekilish maydoni taxlilida ko’rinib turibdiki, eng ko’p ekilgan hudud Xorazm viloyatida (loviya) ekanligi aniqlangan. Eng kam maydonlar esa Qoraqalpog’iston Respublikasi, Surxandaryo, Sirdaryo viloyatlariga to’g’ri keladi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan xulosalar:

Dukkakli o’simliklarning foydalari bo’yicha olib borilgan tadqiqodlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki bunday maxsulotlarni har kuni istemol qilish inson umrini uzaytirishga sabab bo’lar ekan.

Shifokorlarning takidlashicha ular ichakdagi foydali bakteriyalarning ko’payishi rag’batlantiradigan prebiotik tolalarni o’z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Musirmanov D, Hakimov A. “Dukkakli o’simliklarning zang kasalliklariga chidamli boshlang’ich manbalari”. G’G’ Agro ilm ilovasi. 2 (46)-son. 2017 yil. -b. 36-37.

2.Siddiqov R. “Global iqlim o’zgarishlariga chidamli, don hosildorligi va sifati yuqori bo’lgan boshqoli don, dukkakli, moyli, ozuqa ekinlarni parvarishlash istiqbollari”. –xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya maqolalar to’plami. 2022 yil. –b. 3-9.

3.Turayeva G & Jumaboevich, M. T. (2022). Fntech development in the republic of Uzbekistan. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(1), 71-83.

4.Turayeva G. (2023). Don ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlashning iste’mol savatidagi ahamiyati. экономика и образование, 24(2), 440-444.